

**JEK LONDONNING "MARTIN EDIN" ROMANIDA SHAXS IRODASINING  
PSIXOLOGIK TAHLILI****Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna****KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası v/b dotsenti, PhD****Nurmuhammadova Madina Zafar qizi****KDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20226153>****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada shaxsning irodaviy sohasi va iroda jarayonlarining shakllanish qonuniyatlari Jek Londonning "Martin Iden" asari qahramoni timsolida ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda irodaning asosiy komponent sifatleri — qaror qabul qilish, sabr-toqat va qat'iyatning shaxs kamolotidagi o'rne psixologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Oddiy dengizchining jahonshumul yozuvchiga aylanish yo'li psixologik aspektda o'rganilib, inson o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida ichki va tashqi to'siqlarni yengish mexanizmlari va irodaviy sifatlarining o'zaro bog'liqligi ochib beriladi. Maqolada asosiy g'oya — tashqi omillar emas, balki ichki iroda insonni cho'qqiga olib chiqishini sodda va ta'sirli tilda tushuntirib berishdan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi esa badiiy obraz orqali irodaviy jarayonlarning amaliy namoyonini tahlil qilishdadir.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье на научно-теоретическом уровне анализируется волевая сфера человека и законы формирования волевых процессов на примере героя романа Джека Лондона «Мартин Иден». Исследование освещает роль основных составляющих качеств воли — принятия решений, терпения и целеустремленности — в развитии личности на основе психологических подходов. Изучается путь обычного моряка к становлению всемирно известным писателем с психологической точки зрения, раскрываются механизмы преодоления внутренних и внешних препятствий на пути к поставленной цели и взаимосвязь волевых качеств. Главная идея статьи — объяснить простым и эффективным языком, что к вершине человека ведут не внешние факторы, а внутренняя воля. Научная новизна статьи заключается в анализе практического проявления волевых процессов через художественный образ.

**ANNOTATION**

This article analyzes the volitional sphere of a person and the laws of the formation of will processes on a scientific and theoretical basis using the hero of Jack London's "Martin Eden". The study sheds light on the role of the main component qualities of will - decision-making, patience and determination in the development of a person based on psychological approaches. The path of an ordinary sailor to become a world-famous writer is studied from a psychological aspect, revealing the mechanisms of overcoming internal and external obstacles in achieving the goal set by a person and the interrelation of will qualities. The main idea of the article is to explain in a simple and effective language that it is not external factors, but internal will, that lead a person to the top. The scientific novelty of the article lies in the analysis of the practical manifestation of will processes through an artistic image.

**Tayanch so'zlar:** Iroda, Martin Edin, matonat, manaviyat, irodaviy sifatlar, qaror qabul qilish, sabr-toqat, qat'iyat, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy tajriba, emotsional barqarorlik, irodaviy jarayonlar, maqsad, ongli tanlov, shaxs kamoloti.

**Ключевые слова:** сила воли, Мартин Эдин, настойчивость, духовность, волевые качества, принятие решений, терпение, решительность, психология личности, социальный опыт, эмоциональная стабильность, волевые процессы, цель, сознательный выбор, личностное развитие.

**Keywords:** Willpower, Martin Edin, perseverance, spirituality, volitional qualities, decision-making, patience, determination, personality psychology, social experience, emotional stability, volitional processes, purpose, conscious choice, personal development.

### KIRISH

Iroda tushunchasini har kim turlicha talqin qiladi. Masalan, kimdir jim turishni iroda belgisi deb hisoblasa, yana kimdir oddiygina parhezni tushunadi. Aslida iroda Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iroda — bu cheksiz resurs emas, u mushak kabi charchaydi, lekin ayni paytda mashq qildirish orqali kuchayadi. Martin Iden obrazida biz aynan mana shu "iroda mushagi" ning kunlik intizom (kam uxlash, tinimsiz mutolaa) orqali qanday chiniqqanini ko'ramiz. Martinning kam uxlashi, tinimsiz mutolaasi va ijtimoiy qiyinchiliklarga qaramay to'xtamasligi — shunchaki mehnatsevarlik emas, balki tizimli ravishda chiniqtirilgan intizom samarasidir. *Agar motivatsiya insonni qayiq kabi qirg'oqdan itarsa, aynan iroda uni bo'ronli dengizda marra sari boshqaradigan eshkak vazifasini o'taydi.*

### ASOSIY QISM

Iroda insonning ongli ravishda qaror qabul qilish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va maqsadga erishish qobiliyati hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda Iroda — bu o'zingni boshqara olish kuchi. Har bir maqsadga yetishish yo'lida inson o'zidagi ichki va tashqi to'siqlarni yengishi zarur. Bularni iroda sarf etmasdan yengib bo'lmaydi. Ichki kurashlarga bizdagi yalqovlik, havvoyi nafsimiz yo'lidagi behuda harakatlar, qo'rquv hissi, maqsad yo'lidagi to'siqlarga sabr etish bularning bari ichki to'siqlardir. Irodaning muhim sifatlari: o'zini tuta bilish, dadillik, qat'iylik, chidam va toqat, prinsipiiallik, mustaqillik va boshqalar. Iroda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo'lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g'oyalarga asoslangan ongli qat'iyat va sabot bilan o'z harakati yo'lidagi to'siqlarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi. Iroda kishining xarakteri bilan uzviy bog'liq, uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. **S. L. Rubinshteyn** irodani falsafiy va psixologik ma'noda tasvirlaydi: "ongli maqsad va unga turtki sifatida munosabat bilan tartibga solinadigan harakatlar irodaviy harakatlardir". Bunday ta'rif Iroda tushunchasini istak tushunchasidan, motivatsiya tushunchasidan aniq ajratishga imkon beradi. Ushbu ta'rifda maqsadga munosabat, uni anglash shaklida bir lahzali vaziyatdan uzilish mavjud. Maqsad va maqsadning nisbati ham muhimdir. Maqsad va motiv hech bo'lmaganda subyektning ongida bir – biriga to'g'ri keladigan bo'lsa, subyekt o'z faoliyatini to'liq boshqaradi, u o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi-faoliyatda Iroda mavjud. Ba'zi psixologlar Iroda tushunchasini aqliy funktsiya sifatida insonning maqsadga erishishga intilish qobiliyati bilan aralashtiradilar, natijada quyidagi ta'riflarni topish mumkin: „Iroda – bu maqsadga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishni ta'minlaydigan o'z faoliyati va xulq-atvori subyekt tomonidan ongli ravishda tartibga solish...“.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi, ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Sotsiologiyada Iroda tushunchasi ham mavjud. Masalan, sotsiolog **F.N.Ilyasov** irodani „subyektning ierarxik qadriyatlar tizimini yaratish va past darajadagi qadriyatlarni e'tiborsiz

qoldirib, yuqori darajadagi qadriyatlarga erishish uchun harakat qilish qobiliyati“deb ta’riflaydi. Irodaning nerv-fiziologik asoslari

### ***Nerv-fiziologik xususiyati***

Irodaviy ya’ni ixtiyoriy harakatlarning nerv-fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po’stlog’ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo’lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to’la ongli harakatlar bo’lgani uchun bosh miya po’stlog’ida yuzaga keladigan optimal qo’zg’alish manbalari bilan ham bog’liq bo’ladi. Bu haqda akademik I. P. Pavlov shunday deb yozgan edi: “Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog’da xuddi shu sharoitning o’zida ma’lum darajada optimal (har holda o’rtacha bo’lsa kerak) qo’zg’alishga ega bo’lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat”.

### **NAZARIYALAR**

#### *Iroda borasidagi nazariyalar*

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo’lib, u inson ongining mohiyatini kashf qilishdan boshlanib, muayyan bilimlar to’planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan davrgacha bo’lgan tarixiy yo’lni bosib o’tgan.

**Arastu** o’z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e’tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq-atvorini o’zgartirishini boshqarish imkoniyatiga ega bo’lgan omil hisoblanadi.

XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta’kidlab o’tganlaridek, faollik manbaini bemahsul sohaning paydo bo’lishi, deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday yondashish irodaning ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishni shakllantirgan bo’lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi. V. Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining sub’ektiv tomondan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emosional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U. Djeymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo’lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g’oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo’lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g’oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta’minlashdan iboratdir.

Gumanitar yo’nalish, ya’ni inson muammolariga e’tiborning ortishi bilan o’z-o’zidan irodani o’rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII–XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro’y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o’tib qoldi, uni mutlaqo inkor etish mumkin emas.

Yetarli darajada qat’iy fikr qaror topganligi, iroda – bu insonning qo’yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faoliyatidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo’ya olish kabi shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. **I.V. Selivanov** irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalarni chiqaradi:

a) *iroda* – bu shaxsning o’z faoliyatini va olamdagi o’zini-o’zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) *iroda* – inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) *iroda* – bu amaliy ong, o’zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o’zini ongli idora qilishidir;

g) *iroda* – bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi, turtkisi hisoblanadi.

Har bir kishida irodani ayrim sifatleri umr bo‘yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatleri (ya‘ni doimiy xislatlari) bo‘lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o‘ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo‘lishi shu kishi xarakterining xislat bo‘lavermaydi.

Iroda kuchi irodani muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko‘rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko‘rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hohishlarni farq qilamiz.

### **XULOSA**

Mazkur maqolada iroda tushunchasining psixologik mohiyati, uning shaxs faoliyatidagi o‘rni va shakllanish jarayoni atroflicha yoritildi. Iroda insonning maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyatini ta‘minlovchi muhim omil bo‘lib, u nafaqat harakat motivlarini belgilaydi, balki shaxsning o‘zini boshqarish, qaror qabul qilish va qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini ham namoyon etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, irodaviy sifatlarning vaqt o‘tishi bilan mustahkamlanib, shaxs xarakterining ajralmas qismiga aylanadi. Iroda kuchi esa insonning ehtiyojlari, intilishlari va maqsadlariga erishish jarayonida turli darajada namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tarixiy va nazariy yondashuvlar iroda masalasining doimo ilmiy izlanishlar markazida bo‘lganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, iroda — bu shaxsning ongli ravishda o‘z xulq-atvori va faoliyatini boshqarish, maqsad sari intilish va ichki hamda tashqi to‘siqlarni yengib o‘tish imkonini beruvchi murakkab psixologik jarayondir. Uni rivojlantirish esa insonning shaxsiy kamoloti va hayotiy muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. London, J. “Martin Eden”. – Toshkent: Turli nashrlar.
2. Rubinshteyn, S. L. “Umumiy psixologiya asoslari”. – Moskva: Pedagogika nashriyoti.
3. Pavlov, I. P. “Oliy nerv faoliyati haqida ma‘ruzalar”. – Moskva: Nauka.
4. Vundt, V. “Psixologiya asoslari”. – Moskva: Nauka.
5. Djeym, U. “Psixologiya prinsiplari”. – Moskva: Progress.
6. Spinoza, B. “Etika”. – Moskva: Falsafa nashriyoti.
7. Gobbs, T. “Leviafan”. – Moskva: Mysl.
8. Selivanov, I. V. Iroda psixologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar. – Moskva.
9. Ilyasov, F. N. Shaxs va irodaviy xatti-harakatlar nazariyasi. – Moskva.
10. Umumiy psixologiya darsligi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim nashriyoti.